

MAROSIMIY KIGIZ BUYUMLAR.

Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi hodimi

Xusainova. M

Qadimiy zamonlardan buyon marosimlarga moljallab tayyorlangan buyumlar turkman xalqining xayot tarzida muxum axamyat kasb etadi. Oq va qora namatlar turkmanlar turmushida keng foydalanilgan va ular bilan bogliq rasmiy buyumlar ildizi juda qadimiy zamonlarga borib tadaladi. Ko'p asirlardan buyon ajdodlarimmiz ongiga singib ketgan tuwunchalariga kora kora rangli jun insoni ins jinsdan va uning rozgorini yomon kozlardan asrar emish. Respublikaning turli qiwloqlarida olib borilgan etnografiya tadqiqotlar jarayonida uy bosag'asiga kora nemat "Bosag'a kecha" towash ananasiga qayt etilgan. Sharqiy Turkmanistonda yangi qurilgan uyning koziga yaqqol tashlanib turadigan joyiga bir parcha kigiz osib qoyilgan. Bunday etiqodga sodiq bo'lgan to'quvchi ayollar dasturxonlarga ko'ra kigiz parchasi ilib qoyilgan. Milliy ko'lbola buyumlar-chopon va qalpoqlarning gardi qora jiyak bilan aylantirib chiqilgan, namatning to'rt tomoni esa (gara –gira) deb ataluvchi qora jun hoshiya bilan hoshiyalangan – ya'ni buyumlar yomon ko'z va ins-jinslardan muhofaza qilingan. Faqat qora hiygiz yoli qora rangdagi to'qima buyumlarga emas, hatto atamaning o'zi jham turkman halqlarida buyuk, kuchli, qudratli ma'nolarni anglatgan. Qudratli hukmdorlar "Garahan" ("Qorahon") deb nomlangan, yirik tabiiy manbaalar "Goragum" ("Qora qum"), "Gara dengiz" ("Qora dengiz"), ("Gara bulut") ("Qora bulut") deb atalgan va x k. Ayni vaqtda O'rta Osiyo halqlari o'rtasida oq rang poklik, ulug'vorlik va baxt timsoli hisoblangan. Oq kiygizga alohida munosabatda bo'lish shunday kelib chiqqan, u diniy marosimlar vositasiga aylanib, egasining ma'lum ijtimoiy mavqeyini belgilovchi unurning hayotdagi ahamiyati va maqomiga ega bo'lgan.

Oq namat "Xonni taxtga o'tqazish" marosimida asosiy vosiya hisoblangan. Turkiy halqlarida (ayrimlarida XX asrgacha) xon qilib saylash eskicha rasmiy rusmlar asosida amalga oshirilgan, ya'ni yangi shoxni oq namatga o'tqazishgan, namatning chekkalaridan

ushlab uch marta, “Xon! Xon! Xon!” deb yerdan dast ko’tarib tushurishgan. Ko’pgina turli Xalqlarda (O’zbeklar boshqiridlar, Qozoqlar, Qirg’izlar va x k) barcha davrlarda xonni oq namatga o’tkazish rasmi amalga oshirilgan. 1746-yili Buxoro ruhoniylari sayyidlar, qozilar va ho’jalar ishtirokida Muhammad Rahimxonni oq namatga o’tkazib, xon qolib ko’tarishgan.

Arminiy Bamberiy Qo’qon xonligida xonni saylashda uni oq kiygizga o’tqazib ko’tarishgani, xon esa o’z navbatida dunyoning to’rt tarafiga qarab kamondan paykon yo’llagani haqida ma’lumot beradi.

Qozoq xonligida ham xon tayinlanganligining juma kunisi “ xon qilib ko’tarish rasmi belgilangan. Ikkita olqsoqol oq namatga xonning yuzini qiblaga qaratib o’tqazishgan. So’ng eng hurmatli sulton, biy, boy va botirlardan to’rt nafari kiygizda o’tirgan xonni uch bora boshlari barobar ko’targanlar. Shundan keyin xon qonuniy hukmdor deb e’tirof etilgan, so’ng qutlovlar boshlangan, endi uni saroy ayonlari zodagonlar va oq soqollar oq namatga ko’tarishgan. Olimlarning fikricha, bu udum ildizi xunlar va qadimgi turklardagi Tangri va quyoshga sig’inish bilan bog’liq. Inisiyatsiya (taxtga o’tqazish) vaqtida bu alohida udum majburiy tarzda ado etilgan. Xonni oq namatga ko’tarish va uni quyosh tevaragida to’qqiz marta aylantirish ming bir olamdan boshqasi o’tishi hamda uni tangi darajasiga ko’tarilganligini anglatgan. Oq kiygiz udumiy marosimda eng muhim vosita bo’lib hizmat qilgan. Qog’ozlar aqiydasiga ko’ra turmushga chiqayotgan qiz dunyolarning sarxadlaridan oshib o’tish. To’y marosimlardan bir necha kun oldin kelin bo’lmish hayrlashgani qarindosh – urug’larinikigagina borgan. Mana shu marosimda kelinni oq namatga ko’tarib borishgan. Kelinni ovulga ham shunday kiygizda olib borishgan.

Turkmanistonning ayrim viloyatlarida keksalarning “ payg’ambar to’yi” tantanasida (63 yoshga kirganida) tepalik ustida unga atab yangi o’tov tiklashgan. Tantanalar boshlashi bilan yaqin qarindosh urug’lari uni oq kiygizga o’tqazib, mehmonlar qoshiga olib kelishgan. Bu amal taxtga o’tirish rasm-rusmlardan biri hisoblangan.

Udumlik ahamiyatiga ega bo’lgan buyum joynomoz ham jundan to’qilgan. Joynomoz to’qishda tozlikka rioya qilish, sifatsiz va yaroqsiz jun ishlatmaslik va faqat oq jun

tanlashlanishi shart. Naqsh gullar tushurishda qo'llanadigan ranglar bundan mustasno. Hammadan ham muhumi, gul tushuradigan jun tuya ipidan bir tola ham qo'shilmasligi kerak joynamozga kim gul toqishi ham muhum ahamiyat kasb etadi, bu ish topshilgan ayol pokdomon, iymon etiqodli, tutumi pok va halol bo'lmog'i lozim. Joynamoz tayyor bo'gach u albatta muqaddas suv sepib poklangan.

Joynamozdan foydalanganda uni faqat toza joyda to'shamoq kerak, judayam eskirgan joynamozni yoqib yuborish zarur. Shuni takidlash joizki, qadim zamonlarda jundan yomon ko'z va ins – jinslardan saqlaydigan tumorlar yasashgan. Turkman chevarlari ularga “go'chak” (qochqor shoxi) olacha singari usullarda gullar, kashtalar tikib berzashgan. Bunday tumorlar uy – ro'zg'or buyumlarini va yomon ko'zkardan asrabgina qolmay, uning bezaklariga ham o'ziga hos go'zallik bag'ishlagan.

Yuqorida aytilganlardan shunday hulosalar qilish mumkinki, oq va qora namatlar, joynamozlar, kiygiz tumorlar kabi barcha buyumlar alohida marosimlar, masalan, toy, xon ko'tarish, diniy rasm –rusmlarga mo'ljallangan bo'lib, milliy qadryat sifatida turkman halqining manaviy hayotida chuqur ildiz otgan. Bu buyumlarni ilmiy jihatdan o'rganish Turkiy halqlarning qadimgi va o'ziga hos etnografiyasini chuqurroq anglash imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. www.google.co.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.pedagog.uz
4. www.edu.uz
5. www.lex.uz